


## Buxoro viloyatining sanoat ishlab chiqarishi (2020- yil yanvar-noyabr)


Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2020- yilning yanvar-noyabr oylarida viloyat korxonalarini tomonidan 15422,4 mld. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2019- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishning fizik hajm indeksi\* 100,3 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarish tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi – 95,5 % ni tashkil etdi.



**B**- Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, **C**-Ishlab chiqaradigan sanoat **D**-Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash, **E**-Suv bilan ta'minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish.

### Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish, FHI\* % da




Jami sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi pasayishining asosiy omili bo'lib, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatida – 91,2 % ga va suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilishda – 26,5 % ga pasayishi kuzatildi.


Shuningdek, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning – 19,4 % ga hamda elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning – 28,7 % ga o'sishi kuzatildi.

\*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.


**Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatining  
ishlab chiqarish hajmi hamda fizik hajm indeksi**



Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2020- yilning yanvar-noyabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 182,3 mlrd. so‘mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining – 1,2 % ini tashkil etdi.



**Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari  
tomonidan ayrim turdag'i sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**






**Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari  
tomonidan ayrim turdag'i sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**

Sanoat mahsulotlari	2019- yil yanvar-noyabr	2020- yil yanvar-noyabr	Farqi +/-
Texnik oltingugurt, <i>tonna.</i>	1331,0	1073,0	-258,0
Shag‘al, <i>tonna.</i>	33029,0	35711,0	2682,0
Neft va tabiiy gaz qazib olish bilan bog‘liq burg’ilash xizmatlari, <i>mln. so‘m.</i>	204406,2	125024,5	-79381,7

**Ishlab chiqaradigan sanoat**



2020- yilning yanvar-noyabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 14732,5 mlrd. so‘mni yoki jami sanoat mahsulotlarining – 95,5 % ini tashkil etdi.

**Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, % da**





## BUXORO VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi – 0,1 % ni (2019-yilning yanvar-noyabr oylarida – 0,1 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 1,8 % (1,8 %), o'rta-quyi texnologiyali – 58,5 % (57,2 %) va quyi texnologiyalisi – 39,6 % (40,9 %) ni tashkil etdi.

### Yuqori texnologiyali

Ulushi % da

0,1

2019- y.

0,1

2020- y.

### O'rta-yuqori texnologiyali

Ulushi % da

1,8

2019- y.

1,8

2020- y.

### O'rta-quyi texnologiyali

Ulushi % da

57,2

2019- y.

58,5

2020- y.

### Quyi texnologiyali

Ulushi % da

40,9

2019- y.

39,6


2020- y.

Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida koks va neftni qayta ishlash maxsulotlarini ishlab chiqarish sohasining ulushi – 47,0 % (2019- yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi – 126,2 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarish sohasining ulushi – 20,3 % (2019- yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi – 119,2 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 16,5 % (2019- yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi – 114,1 %), boshqa nometall mineral maxsulotlarni ishlab chiqarishning ulushi – 5,9 % (2019- yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi – 120,6 %) ni tashkil etdi.

**Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdag'i  
mahsulotlarning o'sish sur'ati**

2020- yilning yanvar-noyabr oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 756,6 ming tonna avtomobil benzini (2019- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan – 10,7 % ga o'sgan), 19,6 ming tonna kalava ip (46,6 %), 83,3 ming tonna yumshoq bug'doy va spelta uni (10,7 %), 622,2 ming litr vino mahsulotlari (9,8 %) ishlab chiqarilib, yuqori o'sish sur'atlari kuzatildi.

**O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da**






**Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalar  
tomonidan ayrim turdag'i mahsulotlarni ishlab chiqarish**

Sanoat mahsulotlari	2019- yil yanvar-noyabr	2020- yil yanvar-noyabr	Farqi +/-
Mazut, ming tonna	72,5	106,3	33,8
O'simlik yog'i (tozalangan), tonna	19736,9	17159,9	-2577,0
Paxta,tolasi, tonna.	66543,3	79165,7	12622,4
Yumshoq bug'doy va spelta uni, tonna.	75212,3	83297,2	8084,9
Quyish uchun tayyor beton,tonna.	11733,6	24375,5	12641,9
Avtomobil benzini, ming t.	683,3	756,6	73,3
Paxta chigit, tonna.	101182,1	130523,6	29341,5
Qurilish uchun g'ishtlar , ming dona.	3666,0	2193,0	-1473,0
Dizel yoqilg'isi, ming t.	656,1	551,2	-104,9

Ishlab chiqaradigan yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarishda (2019- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan) yumshoq bug'doy va spelta uni – 110,7 % ga, avtomobil benzini – 110,7 % ga, paxta tolasi – 119,0 % ga, paxta chigit – 129,0 % ga, quyish uchun tayyor beton – 2,1 marta ko'pga o'sishini kuzatish mumkin. Shuningdek dizel yoqilg'isi – 84,0 % ni, qurilish uchun g'ishtlar – 59,8 % ni, o'simlik yog'i (tozalangan) – 86,9 % ni tashkil etib, islab chiqarish sur'atlari kamaygan.

### **Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash**


*2020- yilning yanvar-noyabr oylarida*



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalaridan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 413,9 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining – 2,7 % ini) tashkil etdi.


2020- yilning yanvar-noyabr oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalash o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi – 28,7 % ga oshganligi kuzatildi.

### **Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi yil boshidan yanvar-noyabr, % da**




### **Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalaridan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**

Sanoat mahsulotlari	2019- yil yanvar-noyabr	2020- yil yanvar-noyabr	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln.kVt/s	4,9	5,7	0,8
Issiqlik energiyasi, ming gkal	689,9	703,8	13,9



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 93,7 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining – 0,6 % ni) tashkil etdi.




Sanoat mahsulotlari	2019- yil yanvar- noyabr	2020- yil yanvar- noyabr	Farqi +/-
Oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mln.so'm	7742,1	8181,5	439,4
Axlat o'ralarni, tindirgichlarni va septiklarni bo'shatish, tozalash va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mln.so'm	313,2	460,7	147,5

O'tgan yilning mos davriga nisbatan axlat o'ralarni, tindirgichlarni va septiklarni bo'shatish, tozalash va ishlov berish bo'yicha xizmatlar – 5,7 %, oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar – 47,1 % ga oshganligi kuzatildi

**Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish**

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 5774,2 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2019- yilning mos davriga nisbatan 9,6 % ga o'sgan holda, uning jami sanoatdagi ulushi 37,4 % ni tashkil etdi.



Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino va aroq mahsulotlari va pivo – 2,1 % (2019- yil yanvar-noyabr oylarida – 2,1 %) ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Qorovulbozor tumaniga to'g'ri kelib, 20,5 % ni, shuningdek, Buxoro shahri 17,6 % ni, G'ijduvon tumani 9,9 % ni, Kogon tumani 9,8 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida viloyat o'sish sur'ati (109,6 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Vobkent (126,2 %), Romitan (122,0 %), Olot (121,2 %), Peshku (119,5 %) hamda Kogon (115,6 %) tumanlarida qayd etildi.

**Hududlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab  
chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati  
2020- yilning yanvar-noyabr oylarida**

	<b>Mird. so'm</b>	<b>Ulushi % da</b>	<b>O'sishi % da</b>
	133,9	2,3	121,2
<b>Olot</b>			
	<b>Mird. so'm</b>	<b>Ulushi % da</b>	<b>O'sishi % da</b>
	151,1	2,6	119,5
<b>Peshku</b>			
	<b>Mird. so'm</b>	<b>Ulushi % da</b>	<b>O'sishi % da</b>
	377,3	6,5	104,9
<b>Buxoro</b>			
	<b>Mird. so'm</b>	<b>Ulushi % da</b>	<b>O'sishi % da</b>
	253,7	4,4	122,0
<b>Romitan</b>			
	<b>Mird. so'm</b>	<b>Ulushi % da</b>	<b>O'sishi % da</b>
	325,7	5,7	126,2
<b>Vobkent</b>			
	<b>Mird. so'm</b>	<b>Ulushi % da</b>	<b>O'sishi % da</b>
	335,8	5,8	108,8
<b>Jondor</b>			
	<b>Mird. so'm</b>	<b>Ulushi % da</b>	<b>O'sishi % da</b>
	265,3	4,6	103,1
<b>Shofirkon</b>			
	<b>Mird. so'm</b>	<b>Ulushi % da</b>	<b>O'sishi % da</b>
	1017,0	17,6	104,2
<b>Buxoro sh.</b>			
	<b>Mird. so'm</b>	<b>Ulushi % da</b>	<b>O'sishi % da</b>
	284,4	4,9	100,0
<b>Kogon sh.</b>			
	<b>Mird. so'm</b>	<b>Ulushi % da</b>	<b>O'sishi % da</b>
	308,2	5,4	100,1
<b>Qorako'l</b>			
	<b>Mird. so'm</b>	<b>Ulushi % da</b>	<b>O'sishi % da</b>
	1183,2	20,5	110,2
<b>Qorovulbozor</b>			

Hududlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Qorovulbozor tumaniiga to'g'ri kelib, 32,6 % ni, shuningdek, Kogon tumani – 13,1 % ni, Buxoro shahri – 10,6 % ni, G'ijduvon tumani – 9,1 % hamda Buxoro tumani – 6,0 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida yuqori ko'rsatkich Vobkent (141,0 %), Peshku (140,7 %), Olot (136,9 %), Romitan (131,5 %) tumanlarida qayd etildi.

**Hududlar bo'yicha nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab  
chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati  
2020- yilning yanvar-noyabr oylarida**

	Mird. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da		Mird. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
Olot	73,3	2,1	136,9	Peshku	78,8	2,2	140,7
Buxoro	213,4	6,0	107,0	Romitan	148,1	4,2	131,5
Vobkent	201,8	5,7	141,0	Jondor	136,2	3,8	116,7
G'ijduvon	321,2	9,1	114,9	Shofirkon	123,4	3,5	98,9
Kogon	462,4	13,1	117,2	Buxoro sh.	376,0	10,6	85,2
Qorako'l	94,4	2,7	94,6	Kogon sh.	154,9	4,4	100,1
Qorovulbozor	1151,6	32,6	110,2				

Hududlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Buxoro shahriga to'g'ri kelib, 28,6 % ni, shuningdek, G'ijduvon tumani – 11,2 % ni, Qorako'l tumani – 9,6 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida eng yuqori ko'rsatkich Buxoro shahrida (119,9 %), Qorovulbozor (111,4 %) hamda Romitan tumanlarida (110,8 %) qayd etildi.

**Hududlar bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab  
chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati  
2020- yilning yanvar-noyabr oylarida**

	<i>Mird. so'm</i>	<i>Ulushi % da</i>	<i>O'sishi % da</i>		<i>Mird. so'm</i>	<i>Ulushi % da</i>	<i>O'sishi % da</i>
	60,6	2,7	106,3		72,3	3,2	102,7
<b>Olot</b>							
	163,9	7,3	102,4		105,6	4,7	110,8
<b>Peshku</b>							
	123,9	5,5	107,8		199,6	8,9	104,1
<b>Buxoro</b>							
	250,5	11,2	110,4		141,9	6,4	107,1
<b>Vobkent</b>							
	104,5	4,7	108,8		641,0	28,6	119,9
<b>Jondor</b>							
	213,8	9,6	102,7		129,5	5,8	100,0
<b>G'ijduvon</b>							
	31,6	1,4	111,4		<b>Kogon sh.</b>		
<b>Kogon</b>							
	213,8	9,6	102,7		<b>Qorako'l</b>		
<b>Qorovulbozor</b>							



## BUXORO VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI

### Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish 2020- yilning yanvar-noyabr oylarida

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 960,1 mlrd. soʻmlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.


Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning umumiy ishlab chiqarishdagi tutgan ulushi 6,2 % ni tashkil etdi.

### Buxoro viloyati hududlari kesimida sanoat ishlab chiqarish hajmlari 2020- yilning yanvar-noyabr oylarida

	Mlrd. soʻm		Ulushi % da	Oʼsishi % da
	15422,4	100,0		
<b>Buxoro viloyati *</b>				
	Mlrd. soʻm	Ulushi % da	Oʼsishi % da	
	316,1	2,1	100,4	
<b>Olot</b>				
	Mlrd. soʻm	Ulushi % da	Oʼsishi % da	
	293,1	1,9	101,7	
<b>Peshku</b>				
	Mlrd. soʻm	Ulushi % da	Oʼsishi % da	
	459,0	3,0	109,3	
<b>Romitan</b>				
	Mlrd. soʻm	Ulushi % da	Oʼsishi % da	
	639,8	4,1	104,3	
<b>Jondor</b>				
	Mlrd. soʻm	Ulushi % da	Oʼsishi % da	
	474,5	3,1	108,1	
<b>Shofirkon</b>				
	Mlrd. soʻm	Ulushi % da	Oʼsishi % da	
	1914,0	12,4	103,2	
<b>Buxoro sh.</b>				
	Mlrd. soʻm	Ulushi % da	Oʼsishi % da	
	676,3	4,4	106,1	
<b>Kogon sh.</b>				
	Mlrd. soʻm	Ulushi % da	Oʼsishi % da	
	7430,6	48,2	106,1	
<b>Qorovulbozor</b>				

**Buxoro viloyati hududlari kesimida ishlab  
chiqarish fizik hajm indeksi, iste'mol mahsulotlari  
ishlab chiqarishning o'sish sur'ati % da**


Viloyat sanoat ishlab chiqarish fizik hajm indeksining o'sishini, G'ijduvon (2019- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan 113,2 %), Buxoro (110,8 %), Vobkent (109,9 %) Romitan (109,3 %) hamda Kogon (108,5 %) tumanlarida sanoat ishlab chiqarish fizik hajm indeksining sezilarli darajada o'sganligi bilan izohlashimiz mumkin.



## Buxoro viloyati jami sanoat mahsulotlari hajmida hududlarning ulushi, % da

Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko‘p ulush Qorovulbozor tumani (Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmining 48,2 % i), Buxoro shahri (12,4 %), G‘ijduvon (7,0 %), hamda Kogon (4,5 %), tumanlari hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

Eng past ko‘rsatkich esa Peshku (1,9 %), Olot (2,1 %) hamda Vobkent (2,3 %) tumanlariga to‘g‘ri kelmoqda.



Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Qorovulbozor tumani (403837,8 ming so‘m), Kogon shahar (11033,3 ming so‘m) va Kogon tumaniga (8848,2 ming so‘m) o‘rtacha Viloyat darajasi ko‘rsatkichidan (7983,4 ming so‘m) ancha yuqoriligini ko‘rsatmoqda.


Viloyat bo‘yicha aholi jon boshiga iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 2989,0 ming so‘m bo‘lgani holda, Qorovulbozor tumanida – 64303,9 ming so‘mni, Kogon tumanida – 7222,1 ming so‘mni, Kogon shahrida – 4639,2 ming so‘mni, Buxoro shahrida – 3625,7 ming so‘mni tashkil etdi.

**Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan sanoat mahsulotlari  
va iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish  
2020- yilning yanvar-noyabr oylarida, ming so‘m**

	<i>Sanoat mahsulotlari</i>		<i>Iste’mol mahsulotlari</i>	
	7983,4		2989,0	
<b>Buxoro viloyati</b>				
	<i>Sanoat mahsulotlari</i> 3183,3	<i>Iste’mol mahsulotlari</i> 1348,8		<i>Sanoat mahsulotlari</i> 2378,9
<b>Olot</b>		<i>Iste’mol mahsulotlari</i> 1226,7	<b>Peshku</b>	
	<i>Sanoat mahsulotlari</i> 3533,7	<i>Iste’mol mahsulotlari</i> 2258,0		<i>Sanoat mahsulotlari</i> 3230,3
<b>Buxoro</b>		<i>Iste’mol mahsulotlari</i> 1785,1	<b>Romitan</b>	
	<i>Sanoat mahsulotlari</i> 2540,2	<i>Iste’mol mahsulotlari</i> 2324,6		<i>Sanoat mahsulotlari</i> 3658,2
<b>Vobkent</b>		<i>Iste’mol mahsulotlari</i> 1920,2	<b>Jondor</b>	
	<i>Sanoat mahsulotlari</i> 3552,6	<i>Iste’mol mahsulotlari</i> 1876,1		<i>Sanoat mahsulotlari</i> 2671,4
<b>G‘ijduvon</b>		<i>Iste’mol mahsulotlari</i> 1493,5	<b>Shofirkon</b>	
	<i>Sanoat mahsulotlari</i> 8848,2	<i>Iste’mol mahsulotlari</i> 7222,1		<i>Sanoat mahsulotlari</i> 6823,6
<b>Kogon</b>		<i>Iste’mol mahsulotlari</i> 3625,7	<b>Buxoro sh.</b>	
	<i>Sanoat mahsulotlari</i> 3019,5	<i>Iste’mol mahsulotlari</i> 1878,3		<i>Sanoat mahsulotlari</i> 11033,3
<b>Qorako‘l</b>		<i>Iste’mol mahsulotlari</i> 4639,2	<b>Kogon sh.</b>	
	<i>Sanoat mahsulotlari</i> 403837,8	<i>Iste’mol mahsulotlari</i> 64303,9	<b>Qorovulbozor</b>	

**Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda  
kichik biznesning ulushi  
2020-yilning yanvar-noyabr oylarida, % da**

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 5147,4 mld. soʻmlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiyligi ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 33,4 % ni tashkil etdi.




Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Vobkent tumani (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100,0 %), Kogon (98,5 %), Shofirkon (84,8 %), Buxoro (65,8 %), hamda Romitan (63,8 %) tumanlarida kuzatildi.

Viloyatimiz hududlari kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi tahlili shuni koʼrsatdiki, Qorovulbozor tumani (1,1 %), Kogon sh. (44,8 %) va G'ijduvon (50,0 %) hamda Olot (50,1 %) tumanlarida sanoat ishlab chiqarish hajmidagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini, mazkur hudularda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.

**Viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari  
(2020- yil 1- dekabr holatiga ko'ra)**

Bugungi kunda viloyatda 4306 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 1210 tasi (faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 28,1 % i) Buxoro shahriga, 550 tasi (12,8 %) G'ijduvon tumaniga, 344 tasi (8,0 %) Buxoro tumaniga, 334 tasi (7,8 %) Kogon tumaniga, 297 tasi (6,9 %) Jondor tumaniga to'gri kelmoqda.



2020- yilning yanvar-noyabr oylarida viloyatda 1010 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etildi, shulardan 184 tasi (jami yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari hajmidagi ulushi 18,2 %) Buxoro shahriga, 150 tasi (14,9 %) G'ijduvon tumanida, 81 tasi (8,0 %) Kogon tumanida, 78 tasi (7,7 %) Shofirkon tumanida tashkil etildi.

**Sanoat statistikasi**

**bo'limi**

**Tel.: (865) 220-83-06**